

**BAQLAJON O'SIMLIGINING XUSUSIYATLARI,  
MORFO-BIOLOGIYASI VA NAVLAR TAVSIFI**

*Yo`ldosheva Feruza Abduzoir qizi - magistrant  
Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada baqlajon o'simligining kelib chiqish tarixi, vatani, biologiyasi, morfologiyasi, ekish uchun tavsiya etilgan navlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** Baqlajon, hudud, navi, texnik, binafsha, biologik, rang, iste'mol, kasalliklar, transport, qulay, xo'jalik, tomorqa, tavsiya.

**Annotation:** This article provides information about the history, native land, biology, morphology, and recommended varieties for cultivation of eggplant.

**Key words:** Eggplant, region, variety, technique, marigold, biological, color, usage, diseases, transportation, convenient, agriculture, pest, recommendation.

**Аннотация:** В данной статье предоставлена информация о истории, родине, биологии, морфологии и рекомендованных сортах для выращивания баклажанов.

**Ключевые слова:** Баклажан, регион, сорт, техника, маригольд, биологический, цвет, использование, болезни, транспортировка, удобный, сельское хозяйство, вредители, рекомендации.

Baqlajon ([lotincha](#): *Solanum melongéna* L. (o'simliklar oilasi: [Solanaceae](#))) ko'p yillik o't o'simlik, yovvoyi xolda Hindiston, Pokiston, Birmada uchraydi, ammo madaniy holda bir yillik o'simlik sifatida yetishtiriladi. Baqlajonning pishmagan barra mevalari iste'mol qilinadi, chunki biologik pishib ketgan mevalarida urug'lari qotib, qattiq bo'lib qoladi, shuningdek solanin M (melongen) moddasi to'planib iste'molga yaroqsiz bo'lib qoladi.

Baqlajonning vatani hozirgi Hindiston hududlaridir. U 1500 yil ilgari madaniy holda yetishtirila boshlangan. Baqlajon Arablar tomonidan IX asrlarda Afrikaga, O'rta Asrlarda esa O'rta yerdengizi hududlariga olib kirilgan. Yevropada XV asrlarda paydo bo'lgan bo'lsada, faqat XIX asrdan boshlab madaniy holda etishtirila boshlangan.

*Poyasi* tik o'suvchi va shoxlanuvchi, baquvvat, balandligi odatda 40-150 sm bo'ladi, ko'pchilik xollarda tikanlar bilan qoplangan bo'ladi. *Barglari* yirik (uzunasiga 7...35 sm), oval, tuxumsimon, yoki cho'ziq-tuxumsimon shaklda. Barg plastinkalari qalin, yumshoq, tuklar bilan qoplangan. *Gullari* ikki jinsli, binafsha rangli, diametri 2,5-5 sm, poyada yakka yoki to'pgul (2-5 tagacha) bo'lib joylashadi. Changchilari sariq rangli, ikki kamerali. Baqlajon fakultativ o'zidan changlanuvchi o'simlik, qisman

hasharotlar yordamida chetdan changlanishi mumkin. *Mevasi* ko'p kamerali rezavor. Shakli silindrsimon, tuxumsimon, sharsimon bo'lib, vazni 50 grammdan 2000 grammgacha bo'lishi mumkin. Mevalari naviga qarab texnik pishganida to'q binafsha, sirti yaltiqoq bo'ladi, biologik pishganida yashil-kulrang, och qo'ng'ir yoki sariq-jigar rang bo'lishi mumkin. Ichki qismi (go'shti) zich, o'rtasha zichlikda yoki bo'sh bo'ladi, rangi oq, yoki qaymoq rangli bo'lishi mumkin. Vegetatsiya davomida baqlajon o'simligi qulay sharoitlar tug'ilganda 150-200 tagacha gul hosil qiladi, ammo ularning aksariyat qismi (60-70 %) to'kilib ketadi. Odatda bir o'simlikda 3-15 ta meva bo'ladi. Iste'mol uchun texnik pishgan mevalari ishlatiladi. *Urug'lari* yumaloq, tekis, to'q sariq yoki och jigar rangda, sirti tekis. Bitta mevada urug' soni 150-200 ta, 1000 tasinig og'irligi 3,5-5,0 gram, 1 grammida esa 150-250 urug' bo'ladi. Unuvchanligini 3-5 yilgacha saqlaydi. *Ildiz tizimi* ko'chatligida nimjon bo'lib so'ng tez o'sib kuchli tarmoqlanadi. Asosan tuproqning 30-40 sm qalinligida rivojlanib, ayrim ildizlari 1,5 metr chuqurlikkacha kirib boradi. Ildizlari tuproqdagi namlik, oziq moddalar va havoning tanqisligiga juda ta'sirchan.

Baqlajon pomidor va qalampirga nisbatan issiqsevar o'simlik. Vegetatsiya davri ham birmuncha uzun. Urug'lari harorat 13-14°C va namlik etarli bo'lganda 4-5 kunda unib chiqadi. O'simligi normal o'sib rivojlanishi uchun maqbul harorat 20-30°C. Harorat 15°C dan past bo'lganida o'sishi sustlashadi, 10°C da esa umuman to'xtaydi, gul va meva tugunchalari to'kiladi. Baqlajon yorug'sevar, qisqa yoki neytral kun o'simligi. Baqlajon tuproqdagi namlik va oziq moddalarga talabchan. Baqlajon o'suv davriga qarab tezpishar, o'rtapishar va kechpishar navlarga bo'linadi. Urug' unib chiqqangan so'ng tezpishar navlar 110-120 kunda; o'rtapishar navlar 120-140 kunda; kechpishar navlar 140 kundan ko'p muddat ichida pishadi.

Namlikni yaxshi o'tkazuvchi qumloq tuproqlar baqlajon uchun maqbul hisoblanadi. Tuproqning yaxshi tayyornanishi baqlajon ildizi intensiv o'sishi va rivojlanishiga yordam beradi. Yomon drenajli tuproq sharoitlarida baqlajon ildiz umumiy yuzasi qisqaradi, o'simligi sust o'sadi va natijada hosildorlik ham pasayadi. Tuproq odatda 20 sm chuqurlikda haydaladi. Baqlajon uchun maqbul tuproq pH 6.0 dan 6.5 gacha, shuningdek tuproq mineral o'g'itlar, ayniqsa fosfarga boy bo'lishi zarur.

Baqlajon mevalari qovurilgan, tuzlangan, marinadlangan, qaynatilgan, quritilgan holda iste'mol qilinadi. Texnik pishib yetilganida tarkibida 89-94 % suv, 0,6-1,4 % uglevodlar, 2,5-4,0 % kletchatka va mineral tuzlar bo'ladi. Mineral moddalardan fosfor, magniy kalsiy, temir, rux, marganes kabi elementlarning tuzlari va asosan kaliy juda ko'p bo'ladi. Shuningdek baqlajon mevalari tarkibida o'ziga xos kristall modda — solanin M ni tutadi. Solanin M baqlajon mevalariga achimtil tam beradi.

**Baqlajon** – ituzumdoshlar oilasiga kiruvchi issiqsevar, bir yillik o‘simlik bo‘lib, uning vatani Hindiston. Baqlajonning mayda (40-60 g) mevali turlari Xitoy, Yaponiyada, yirik (150-200 g) mevalari, Hindistonda yaratilgan.

Baqlajon mevasini eksport qilishning qulayliklari shundaki, yig‘ishtirilgan hosilni transportlarda bozorlarga yoki boshqa shaharlarga jo‘natishda pomidor yoki boshqa sabzavotlar kabi ko‘p xarajat talab qilmaydi, shuningdek, tez urinmaydi va sifati yo‘qolmaydi.

Baqlajon o‘simligi mexanik tarkibi **yengil, unumdor, loyqa o‘tirgan yerlarda**, shuningdek, **soz tuproqli va yaxshi o‘g‘itlangan qumloq tuproqli yerlarda**, tarkibida 5% gumus bo‘lgan tuproqlarda yaxshi o‘sadi. Mexanik tarkibi og‘ir yerlar va sho‘rlangan yoki botqoqlangan yerlarda unchalik yaxshi o‘smaydi. Baqlajonning tuproq unumdorligiga bo‘lgan talabi ham katta.

Yurtimiz hududida deyarli barcha viloyatlarda baqlajonning **turli navlari ekib yetishtiriladi**. Mamlakatimizda yetishtirilgan baqlajon mahsuloti **Belorus Respublikasi, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Rossiya, Tojikiston** kabi davlatlarga eksport qilinadi.

#### **“Feruz “navi**

**O‘rtapishar** nav, o‘shish davri **110–115 kun**. Tupi **yirik, baland** bo‘yli.

**Mevasi** sharsimon, texnik yetilganda to‘q binafsharang, biologik yetilganda rangi sariq, eti och yashil, o‘rtacha tig‘izlikda, vazni **150–200 g**. **Hosildorligi** 35–40 t/ga.

Qayerda yaratilgan: **O‘zbekiston. 2013-yil** Davlat reyestriga kiritilgan.

Mamlakatimiz hududida **barcha viloyatlarda** ekish uchun tavsiya qilingan.

#### **“Avrora” navi**

**O‘rtapishar** nav, o‘shish davri **110–120 kun**.

Tupi **yirik, baland** bo‘yli. **Mevasi** silindrsimon, texnik yetilganda rangi to‘q binafsha, biologik yetilganda jigarrang-sariq, eti och yashil, o‘rtacha tig‘izlikda, vazni **180–220 g**. **Hosildorligi** 40–45 t/ ga. Chirish kasalligiga chidamli, fuzarioz va vertitsillyoz kasalliklariga chidamsiz. Qayerda yaratilgan: **O‘zbekiston**.

**1982-yil** Davlat reyestriga kiritilgan.

Mamlakatimiz hududida **barcha viloyatlarda** ekish uchun tavsiya qilingan.

#### **“Surxon go‘zali “navi**

**Ertapishar** nav, o‘shish davri **98 kun**. O‘simlik tik o‘sovchi, bo‘yi **70 sm**. Poyasi yashil rangda, tikansiz. **Meva** shakli uzun, silindrsimon, mevada urug‘lar miqdori o‘rtacha. Mevaning rangi qora, binafsha, tashqi ko‘rinishi silliq, yaltiroq. Vazni **130gr**. Meva mag‘zi och yashil rangda. **Hosildorligi** 75 t/ga.

Qayerda yaratilgan: **O‘zbekiston. 2015-yil** Davlat reyestriga kiritilgan.

Mamlakatimiz hududida **barcha viloyatlarda** ekish uchun tavsiya qilingan.

#### **“Zamin F1 “duragayi**

**Ertapishar** nav, o'sish davri **95 kun**. O'simlik tik o'suvchi, serbarg, zich shoxlanuvchan. O'simlik bo'yi **85 sm**. Poyasi yashil rangda, tikansiz.

**Mevasi** shakli, silindrsimon, mevada urug'lar miqdori o'rtacha. Mevaning rangi qora, binafsha, tashqi ko'rinishi silliq, yaltiroq. Vazni **160 g**, mag'zining eti och yashil rangda. **Hosildorligi** 110 t/ga. Qayerda yaratilgan: **O'zbekiston**.

**2011-yil** Davlat reyestriga kiritilgan.

Mamlakatimiz hududida **barcha viloyatlarda** ekish uchun tavsiya qilingan.

#### **“Barselona F1 “ duragayi**

Mevasining shakli cho'zinchoqsimon, silliq, to'q siyohrang. Vazni **250 g**, uzunligi 18-24 sm. O'sish davri **105 kun**. **Hosildorligi** gektaridan **2013-2014-yillarda** Chinoz nav sinash stansiyasida **60,5 t/ga**, Mingbuloq nav sinash stansiyasida **53.5 t/ga** ni tashkil etgan. Yuqori hosildor, yangiligicha iste'mol qilishga va qayta ishlashga mo'ljallangan, kasalliklarga chidamli, transportda tashishga qulay va fermer xo'jaliklarida ekishga tavsiya etiladi.

Qayerda yaratilgan: **Ispaniya davlatining “Similos fito” firmasining duragayi.**

**2015-yil** Davlat reyestriga kiritilgan

Mamlakatimiz hududida **Namangan, Surxondaryo va Toshkent viloyatlarida** ekish uchun tavsiya qilingan.

#### **“Anet F1” duragayi**

Mevasining shakli uzunchoq, rangi to'q siyohrang, silindrsimon. Vazni **190 g**, uzunligi 17-18 sm.

Hosildorligi **2007-2008-yillarda** Toshkent nav sinash uchastkasida gektaridan **37,0 t**. O'sish davri **100 kun**. Yangiligicha iste'mol qilishga va qayta ishlashga mo'ljallangan, kasalliklarga chidamli, transportda tashish uchun qulay va fermer xo'jaliklarida hamda dala hovli va aholi tomorqasida ekishga tavsiya etiladi.

Qayerda yaratilgan: **Gollandiya davlatining “Nunems” firmasining duragayi.**

**2009-yil** Davlat reyestriga kiritilgan.

Mamlakatimiz hududida **Toshkent viloyatida** ekish uchun tavsiya qilingan.

#### **“Poma F1” duragayi**

Meva shakli uzunchoq-silindrsimon, rangi to'q siyohrang. Vazni **245 g**, uzunligi 20-24 sm. **Hosildorligi** **2008-2009-yillarda** Toshkent nav sinash uchastkasida gektaridan **46,5 t**. O'sish davri **110 kun**. Yangiligicha istemol qilishga va qayta ishlashga mo'ljallangan, kasalliklarga chidamli transportda tashishga qulay va fermer xo'jaliklarida ekishga tavsiya etiladi.

Qayerda yaratilgan: **Yaponiya davlatining “Sakata” urug'chilik kompaniyasining duragayi.**

**2010-yil** Davlat reyestriga kiritilgan.

Mamlakatimiz hududida **Andijon, Namangan, Farg'ona va Toshkent viloyatlarida** ekish uchun tavsiya qilingan.

### **“Pantera F1” duragayi**

Meva shakli ovalsimon-silindrsimon, rangi to‘q qora. Vazni **210 g**, uzunligi 15-17 sm. O‘shish davri **125 kun**.

**Hosildorligi 2010-2011-yillarda** Toshkent nav sinash uchastkasida gektardan **44,0 tonnani** tashkil etgan. Yuqori hosildor, yangiligicha iste‘mol qilishga va qayta ishlashga mo‘ljallangan, kasalliklarga chidamli, transportda tashishga qulay va fermer xo‘jaliklarida ekishga tavsiya etiladi.

Qayerda yaratilgan: **Fransiya davlatining “Vilmorin” firmasining duragayi.**

2012-yil Davlat reyestriga kiritilgan. Mamlakatimiz hududida **barcha viloyatlarda** ekish uchun tavsiya qilingan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Zuev V.I., Qodirxo‘jaev O.Q., Adilov M.M., Akromov U.I. Sabzavotchilik va polizchilik. Toshkent: 2009. – b. 124-135.
2. O‘zbekiston Respublikasi hududida ekish uchun tavsiya etilgan qishloq xo‘jalik ekinlari Davlat reestri. – Toshkent: 2020. – 55 b.
3. Turkiya Respublikasi “Oziq-ovqat qishloq xo‘jaligi vazirligi” hamda “Denizbank” hamkorligida tayyorlangan “100 ta kitob”dan iborat to‘plami.
4. Bo‘riev X.Ch, Zuev V.I., Qodirxo‘jaev O.Q., Muhamedov M.M. «Ochiq joyda sabzavot ekinlari yetishtirishning progressiv texnologiyalari» T., “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” 2002. – b. 245-251

### **Internet saytlari**

1. <https://www.sabah.com>
2. <https://en.wikipedia.org/wiki/Eggplant>
3. <https://www.agro.u>
4. <https://uz.wikipedia.org/w/index.php?title=Baqlajon&action=edit&section=>
5. <https://www.agro.uz/baqlajon/#1623987712327-18fe3ee8-a980>
6. <https://agrobaza.uz/baqlajon-p-428/>